



2022-yil. 7-son.

# TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

Elektron jurnal

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ  
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА  
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

**Я** ПРЕПОДАВАНИЕ  
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ  
Электронный журнал

**L**ANGUAGE AND LITERATURE  
**TEACHING** | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY  
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Electronic journal

ISSN 2010-5584

1/58



«Til va adabiyot ta'limi»  
«Преподавание языка и литературы»  
«Language and literature teaching»  
ilmiy-metodik jurnal / научно-методический журнал

**Bosh muharrir**

Bahodir JOVLIYEV

**Tahrir hay'ati:**

Baxtiyor Saidov  
Dilshod Kenjayev  
Nizomiddin Mahmudov  
Nargiza Rahmonqulova  
Yorqinjon Odilov  
Nasirullo Mirkurbanov  
Jabbor Eshonqulov  
Valijon Qodirov  
Baxtiyor Daniyarov  
Abdurahim Nosirov  
Tolib Enazarov  
To'liqin Saydaliyev  
Ravshan Jomonov  
Zulxumor Mirzayeva  
Qozoqboy Yo'ldoshev  
Tajixon Sabitova  
Salima Jumayeva  
Nilufar Namozova  
Qayum Baymirov  
Lutfullo Jo'rayev

(bosh muharrir o'rinbosari)

Alijon Safarov (elektron nashr uchun)  
Sayyora Halimova (elektron nashr uchun)

**Muharrirlar:**

Nilufar Namozova  
Emma Torosyan  
Nargis Bobodjanova

**Sahifalovchilar:**

Akmal FARMONOV  
Gulnoza VALIYEVA

**Tabririyaq manzili:**

100038, Toshkent shahri  
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.  
Telefon: (98) 121-74-16,  
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45, (71) 233-03-67.  
e-mail: til\_adabiyot@umail.uz  
web-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

**M U N D A R I J A**

**TAHLIL**

Rashid ZOHIDOV. XIX asr yozma yodgorliklari – kasb-hunar risolalarining muxtasar tavsifi ..... 2  
M. ISMATOVA. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni nashrlari qiyosiy tahlili..... 4  
Obidjon XUDOYQULOV. Oybekning "Navoiy" va Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanlari tahlili ..... 6  
Zilola SHUKUROVA. Bayoz tuzish an'anasi va uning adabiy jarayondagi ahamiyati ..... 10  
Xasan GAFFOROV. O'zbek tilshunosligida gender tadqiqotlar tahlili ..... 12  
Feruza ABDULLAYEVA. Yil fasllari mavzusidagi ilmiy-ommabop badiiy maqolalarni o'qitish mashg'ulotlarining umumiy qurilishi ..... 13  
Shahnoza MAJIDOVA. Gidronimlarda nomlash tamoyillari va ularda oppozitsiya..... 15  
Axrorov IXTIYOR. Jadid ma'rifatparvarlarining maorif va tarbiyaga oid qarashlari ..... 17  
Xamza XAITOV. Badiiy asar va folklor namunalarida saj'ning qo'llanishi va estetik ahamiyati..... 18  
Zarifa NORQOBILOVA. Mavlono Jaloliddin Rumiyning "masnaviyi-ma'naviy" asarida keltirilgan hikoyalardan multfilm yaratish g'oyasining pedagogik ahamiyati..... 19  
Nigora SHARIPOVA. "Xamsa" ilk dostonlarida muallif siymosi ..... 21  
To'liqin ASADOV, Sojida MEHMONOVA. "Otamdan qolgan dalalar" asaridagi -la, -lan, -lash affiksli muallif nutqi neologizmlarining struktur-semantik tadqiqi ..... 23  
Rahmatov MARDON. She'riy jumla predikati va predikativlik muammosi ..... 25  
Bunyod ERGASHOV. Nemis tilini o'qitishda talabning kommunikativ madaniyatini shakllantirish rivojlantirishda pedagogik ahamiyati ..... 29  
Omonulla BAYJIGITOV. Lingvokulturologik frazeologizmlarning assotsiativ talqini ..... 30  
Mehriniso CHORIYEVA. Abdurahmon Tamkin Buxoriy tarjimai holi va ijodi xususida ..... 31

**TADQIQOT**

Maqsud ASADOV. Yunus Emro she'riyatida ma'rifat va komil inson talqini ..... 33  
Abduhamid XOLMURODOV. Tahlilda benazir olim ..... 35  
Kamola ULUG'MURODOVA. O'zbek g'azalchiligida "Layli" obrazining badiiy talqini ..... 37  
Azamat ATAYEV. O'rta asrlar Xorazm adabiy muhiti xususida ..... 39  
Diana RUZMETOVA. Ingliz tilini o'qitishda grammatik interferensiyaning oldini olish tadqiqoti ..... 41  
R. X. JUMAYEV. Sadriddin Ayniy asarlaridagi joy nomlarining tahlili ..... 43  
Nazira BERDIYEVA. Zamonaviy o'zbek nasri taraqqiyotida badiiy psixologizmning o'rni ..... 45  
Lola IDIYEVA. Russian polysemy and their description in sentences ..... 47  
Rasul ALIMOV. Usmonli turk shoiri Larendeli Hamdiyning "Layli va Majnun" dostonidagi qasidalar badiiyati ..... 49  
To'liqin ALLAYOROV. Interrogativ qurilmalarda shakliy va mazmuniy muvofiqlik masalasi..... 50

**KICHIK TADQIQOT**

Karomat MULLAXO'JAYEVA, Nafisa RAXMANOVA. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida Nizomiy an'analari va ularning yangicha talqini..... 52  
Gulira'no RASULOVA. "Sab'ai Sayyor" dostonini o'rganishda matn tarixining o'rni ..... 54  
Abduraufxon ORIFJONOV. Munisning hayoti va ijodiga oid manbalar tahlili ..... 55  
Yulduz JUMABOYEVA. "Lison ut-tayr" turkumidagi dostonlarni qiyosiy o'rganish..... 56

**ЯЗЫКОЗНАНИЕ**

Азима ХОШИМОВА, Гульчехра ДАВЛЯТОВА. Специфика эмотивных концептов ..... 58  
Мафтуна НАСРИДДИНОВА. Несколько слов об иноязычных заимствованиях в русском языке. 59  
Хилола ИРМАТОВА, Гульмира МАМАЖАНОВА. Теоретические основы вариантности орфоэпической нормы русского языка ..... 60

**ИЗУЧАЕМ ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ**

Насиба ПАНЖИЕВА, Мадинабону ДЖУРАБЕКОВА. Лингвистические основы обучения иностранному языку ..... 62

**ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ**

Шахноза БЕРДИЕВА. Образ автора в литературе non-фикшн..... 64

**ЗАРУБЕЖНАЯ ЛИТЕРАТУРА**

Ижобат ЖУРАЕВА. Подросток и школа: характер конфликта в романе Ави «Ничего кроме правды» ..... 66

**НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ**

Нилуфар УСМАНОВА, Гульчехра ДАВЛЯТОВА. Современный речевой дискурс и неориторика языковой личности ..... 70

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining Filologiya bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiiya etilgan ilmiy nashrdir.*

To'liqin ASADOV,  
BuxDU O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida dotsenti,  
filologiya fanlari nomzodi.

Sojida MEHMONOVA,  
BuxDU O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida 2-bosqich magistranti

## “OTAMDAN QOLGAN DALALAR” ASARIDAGI -LA, -LAN, -LASH AFFIKSLI MUALLIF NUTQI NEOLOGIZMLARINING STRUKTUR-SEMANTIK TADQIQI

**KIRISH.** Ma'lumki, lingvopoetika va uning tarkibiy qismlari – lingvostilistika, lingvodidaktika, lingvosemantika, lingvostatistika va h.k. sohalar bo'yicha amalga oshirilgan ishlar ko'lamiga bugungi kunda kelib son va sifat jihatdan ancha oshdi. Nasriy va nazmiy asarlarni lingvopoetik nuqtayi nazardan alohida-alohida tahlil etish, lingvopoetik tahlil jarayonlarini baholash, lingvopoetik tahlil tamoyillarini belgilash [4;5;9] borasidagi maxsus tadqiqotlarning yuzaga kelishi mazkur soha rivojini belgilab bera oladi.

Bilamizki, ko'pgina o'zbek adiblari ijodining til xususiyatlarini turli maqsadlar asosida o'rganishga, bu borada umumiy xulosalar chiqarishga qaratilgan u yoki bu darajadagi tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, iste'dodli yozuvchi Tog'ay Murod asarlari poetikasi va lingvistikasi bo'yicha filologik izlanishlar olib borilmoqda [7]. Biroq tilimiz (adabiy va og'zaki til)ning boy imkoniyatlari namoyon bo'lgan “Otamdan qolgan dalalar” asari, undagi nutqiy va lug'aviy vositalarning turli jilodagi qo'llanishlari tadqiqotchilarni yillar davomida o'ziga jalb etib kelayotganligini keng izohlashga hojat bo'lmasa kerak. Xuddi shunday hodisalardan biri -la, -lan, -lash affiksli nutqiy yasama so'zlar (muallif nutqi neologizmlari)ning asardagi ifodasi masalasi sanaladi.

**ASOSOY QISM.** Biz mazkur tadqiqotimizda “Otamdan qolgan dalalar” asaridagi -la, lan, -lash affikslari bilan bog'liq sodda va murakkab nutqiy yasama so'zlar struktur-semantik tahlilini amalga oshirishni maqsad qilib oldik.

Bugungi kun o'zbek tili so'z yasalishi nazariyasiga oid manbalar hamda mavjud badiiy, publitsistik asarlar tili yuzasidan kelib chiqib ayta olamizki, fe'l yasovchi affikslarni unumdorlik-unumsizligiga ko'ra quyidagicha guruhlab ko'rsatish mumkin: a) unumli fe'l yasovchi affikslar: -la, -lan, -lash; b) o'rta unumli fe'l yasovchi affikslar: -sira, -lashtir, -lantir; d) unumsiz fe'l yasovchi affikslar: -a, -an, -i, -illa/ulla, -ik, -(a)y, -(a)r, -ir/ur, -ira, -ay, -r/ar, -ra, -si, -sin, -sit, -t, -it, -ot, -q, -iq, -qar, -g'ar, -qir. Biz oldingi kuzatishlarimizda mazkur masalaga alohida to'xtalib o'tganmiz [1, 24-25].

Fe'l bilan bog'liq ko'pgina nutqiy va lug'aviy yasama so'zlar -la, -lan, -lash affikslari bilan bog'liq. -la affiksi faol, sermahsul fe'l yasovchi bo'lib, uning ma'no imkoniyatlari juda keng [3;10]. Shuningdek, -lan, -lash affikslari ham yangi-yangi so'zlar yasashda ishtirok eta-

yotganligini ko'ramiz. Misollarni kuzatamiz: I. -lan affiksi: 1. [Navro'z] o'smalangan, surmalangan qosh-ko'zingdan aylanay. (T.Ahmad) 2. Jim turing, shovqinlan-mang... (Qo'shiqdan). 3. Shamolga qo'shilib uchaman endi, Olovga kuymayman, olovlanaman. (Sara)

II. -lash affiksi: 1. Abadiy lol tog'lar tillashdi, Qizil tan-u oqlar dillashdi. (Farida Afro'z) 2. Tashna dilman, daryolashaylik, Ko'ngil ochib dunyolashaylik. (Farida Afro'z)

Ma'lumki, yasama so'z ham lisoniy, ham sof nutqiy holda bo'ladi [8,87]. Yuqorida tahlilga tortilgan misollardagi yasalmalar nutq birligi, okkazonal so'z yasalishi tipida bo'lsa-da, vaqt o'tib, ularning qo'llanish doirasi kengayib borishi mumkin. Bu holat, ya'ni yasama so'zning yasalgan so'zga [6,14-18] aylanish-aylanmasligi shu so'zlarning keyingi “taqdiri” (yashab qolishi) yoki aksincha holga tushishi bilan bog'liq bo'ladi.

-la affiksining fe'l yasash jarayoni faol kechayotganligini iste'dodli yozuvchi Tog'ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asarida keng kuzatish mumkin. Mazkur asarda -la affiksi, uning grammatik hamda semantik tabiati bilan bog'liq quyidagi hollarni kuzatish mumkin:

1) avvalo, keltirib o'tish lozimki, asarda -la affiksli lug'aviy yasama so'zlar (jumladan, alanglamoq, qadamlamoq, shibbalamoq va b.) tarkibida kuzatilishi bilan bir qatorda dalalamoq, soyalamoq, tashqarilamoq, tomlamoq, ichkarilamoq, ayvonlamoq, bayonlamoq, safarlamoq, muloyimlamoq, ko'chalamoq, qishloqlamoq, makonlamoq, inlamoq, tirsaklamoq, yerlamoq, ohistalamoq, oldimlatmoq, boshimlamoq, tugmalamoq, tarafimlamoq, shapatilamoq, oralamoq kabi o'nlab nutqiy yasama so'zlar ham yasashda ishtirok etganligiga duch kelamiz. Aytish mumkinki, bularning bir qismi muallifning ona yurti, ya'ni Surxon vohasi xalqiga oid og'zaki nutq (mahalliy nutq) ko'rinishlari bo'lsa, katta qismi yozuvchining ijod mahsuli, ya'ni muallif nutqi neologizmlari sanaladi. Asardagi ayrim misollarni kuzatamiz: 1. Yo'l, majnuntol soyalab o'tadi. Bobomiz ana shu yo'ldan sahar-sahar dalalaydi. 2. Qiblalatib belbog' yoyadi. 3. Men bo'xchamni orqalatib tashqarilayman. 4. Qaldirg'ochlar afg'on yurtga safarlabdi, kuz oxirlabdi-da.

2) ayrim misollarda -la affiksi bilan bog'liq mahalliy so'zlarning yaqqol namunalari (o'ngalamoq, havorlamoq, shipshiydamlamoq, hadahalamoq va b.) ku-

zatiladi: 1. *Direktorimiz shlyapa odam ketidan qarab turadi-turadi – brigadrga o'ngaladi.* 2. *Dilnavozim bilan shudgor havorladim.* 3. *G'o'zani shipshiydamlab terdi.* 4. *Hadahalab qizimiz oldiga bordim.*

3) -la affiksi tilimizda mavjud qo'shma so'zlardan ham yangi nutqiy yasalmalar hosil qilganligi kuzatiladi. Bu esa -la affiksining o'ta faol so'z yasovchi ekanligidan dalolat beradi. Misollarni kuzatamiz: 1. *Bosh-adoq o'qariqni ana shu maqomda doriqog'ozladim.* Mazkur misoldagi *doriqog'oz* (ot so'z turkumi, ya'ni "qog'ozdan tayyorlangan qop" ma'nosida) qo'shma so'zi -la affiksi orqali qayta yasalganligiga guvoh bo'lamiz.

4) -la affiksi fel+fe'l ko'rinishidagi yangi qo'shma fe'lning yuzaga kelishiga ham sababchi bo'lgan: ... *katta do'xtir tashqarilab keldi.* Misoldagi *tashqarilab kelmoq* so'zi tilimizda yangilik bo'yog'iga ega bo'lib, voqelikni yorqin anglatishda so'zlovchiga juda qulayligi bilan ahamiyat kasb etadi, nazarimizda.

5) -la affiksi orqali mutlaqo yangi takror so'zlarning yuzaga kelishi ham kuzatiladi: *qoshqo'llab-qo'shqo'llab, tonglay-tonglay, ko'llab-ko'llab, changallab-changallab* va b. Masalan: 1. *Bo'yinbog' uchini qo'shqo'llab-qo'shqo'llab tortdim.* 2. *Bir katta yomon bo'lib qoldi – ko'ksini changallab-changallab tashqariladi.*

6) -la affiksi shu davrgacha tilimizda mavjud ayrim juft so'zlardan ham yangi-yangi nutqiy yasama fe'llar yuzaga keltirgan: 1. *Raisimiz shiypon oldini saranjom-sarishtaladi.* 2. *Osiy banda mulla Namozni oq kigizga o'tirg'izuvchi muridlari ana shu masjidida toat-ibodatlanadi, deysiz-da.*

7) ba'zi hollarda -la affiksi sintaktik butunlik tarkibida kelib ish-harakat belgisini ifoda etish uchun qo'llanganligiga guvoh bo'lamiz: 1. *Chilla ana shu yuza zaxni er ostilatib-yer ostilatib cho'ktirdi.* 2. *Men shu ko'yi tag'in ohista ko'z ostimlab-ko'z ostimlab qaradim.*

8) -la affiksli ayrim yasama so'zlar tarkibida asos va qo'shimchalar tartibi buzilgan holda (yozuvchi badiiy maqsadi o'laroq) qo'llangan: *betimlamoq, cho'ntagimlamoq, oldimlatmoq, boshimlamoq, tarafimlamoq* kabi. Misollarni kuzatamiz: 1. *To'pponchalik ayolimiz lozimlab tupurmadi – meni betimlab tupurdi.* 2. *Ivan Ivanovich boshimlab keldi.* 3. *Rejisyor o'shayon cho'ntagimlab "Pravda" soldi.* Mazkur misollarda l shaxs egalik shakli (-m/im) ning so'z yasovchi -la affiksidan oldinda kelishi kuzatiladi.

9) asardagi ayrim o'rinlarda -la affiksining so'z yasovchi emas, balki lug'aviy shakl yasovchi sifatidagi vazifasi ham kuzatildi, bunda ham mutlaqo yangi so'zshakl yuzaga kelgan: *silki-la-b-silki-la-b, yulqi-la-b-yulqi-la-b* kabi.

Asarda -la affiksi bilan bog'liq muallif nutqi yasama fe'llarini tarkibiga ko'ra quyidagi turlarga bo'lib o'rganish mumkin: 1) ot+la shaklda: *dalalamoq, burchaklam-oq, tugmalamoq, soyalamoq, tashqarilamoq, tomlamoq, ichkarilamoq, ayvonlamoq, bayonlamoq, safarlamoq, ko'chalamoq, qishloqlamoq, makonlamoq, inlamoq, tirsaklamoq, yerlamoq, ohistalamoq;* 2) ot+m/-im+la shaklda: *oldimlatmoq, boshimlamoq, tarafimlamoq;* 3)

sifat+la shaklda: *muloyimlamoq, alohidalamoq, pokizalamoq, dinglamoq, forig'lamoq, sertomirlamoq;* 4) ravish+la shaklda: *ohistalamoq, sekinlamoq.*

Asardagi -la affiksli so'zlar, ya'ni fe'llarni semantik tabiatiga ko'ra harakat fe'llari (*dalalamoq, tashqarilamoq, ichkarilamoq, ayvonlamoq*), holat fe'llari (*soyalamoq, muloyimlamoq, sertomirlamoq*), nutq fe'llari (*bayonlamoq*), ruhiy holat fe'llari (*forig'lamoq, niyatlanmoq*) kabilarga bo'lish mumkin.

Asarda -lan affiksi bilan bog'liq muallif nutqi neologizmlari ham ko'p kuzatiladi. Bunga *nazarlanmoq, hadiklanmoq, o'tmaslanmoq, shafaqlanmoq, shukurlanmoq, hayronlanmoq* va h.k. larni misol sifatida aytish mumkin: 1. *Ayolimiz shlyapaga xushvaqtlanib qaradi.* 2. *Bobotog' uzra kun shafaqlandi.* 3. *Apparatlar men taraf peshlandi.* 4. *Saharda vaqtliroq turib devor uraman deya niyatlandim.* 5. – *U kim? – hayronlanib so'radim.*

Asardagi -lan affiksi bilan bog'liq muallif nutqi yasama fe'llarini tarkibiga ko'ra quyidagi turlarga ajratish mumkin: 1) ot+lan shaklda: *nazarlanmoq, hadiklanmoq, shafaqlanmoq, shukurlanmoq, hazarlanmoq, peshlanmoq, niyatlanmoq;* 2) sifat+lan shaklda: *hayronlanmoq, manqalanmoq, xushvaqtlanmoq.*

Asarda qo'llangan -lan affiksli fe'llarni semantikasi-ga ko'ra harakat fe'llari: *pehlanmoq, oldinlanmoq;* holat fe'llari: *hadiklanmoq, shafaqlanmoq, shukurlanmoq, hayronlanmoq;* nutq fe'llari: *manqalanmoq;* ruhiy holat fe'llari: *niyatlanmoq, xushvaqtlanmoq, nazarlanmoq* kabilarga bo'lish mumkin.

Asarda -lash affiksli nutqiy yasalmalar miqdoran oz (Jumladan, *omon-esonlashmoq, xayr-xo'shlashmoq, mashvaratlashmoq*) kuzatildi.

Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" asarida -la affiksi bilan bog'liq murakkab tarkibli fe'llar, xususan, juft va takror so'zlar ham keng kuzatiladi. "Takror va juft so'z"ga bag'ishlangan maxsus ishlarda ularga "morfologik hodisa" sifatida qaraladi[2,21]. Bizningcha, lug'at qatlamimizdagi juft va takror so'zlarni lug'aviy va nutqiy birliklar sifatida o'rganmoq lozim. Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" asarida uzial (an'anaviy) juft va takror fe'llar bilan birga okkazional ko'rinishlari (muallif nutqi neologizmlari) ham ko'p kuzatiladi, bu hol mazkur hodisa taraqqiyotining davomiy kechayotganligini ko'rsatadi. Asardagi juft va takror so'zlarda quyidagicha tasnif va tahlil kuzatiladi:

1. Mustaqil ma'noli so'zlardan tuzilgan juft fe'llar: ot+yasama fe'l: *bosh-adoqlab, saranjom-sarishtalamoq, toat-ibodatlanmoq, xayr-xo'shlashmoq, omon-esonlashmoq, darang-durunglamoq.*

2. Mustaqil ma'noli so'zlardan tuzilgan takror fe'llar: a) ot-la+ot-la: *sonlab-sonlab, olqinlab-olqinlab, enlab-enlab tinoqlab-tinoqlab, umidlanib-umidlanib, bollana-bollana, ko'ppaklab-ko'ppaklab;*

b) ot-lab+ot-lab: *qahrlanib-qahrlanib, sinchlab-sinchlab, ko'llab-ko'llab;*

d) fe'l-la+fe'l-la: *silkila-silkila, yulqila-yulqila;*

e) sifat+sifat-la: *omon-omonlab, pokiza-pokizalab;*

f) sifat-la+sifat-la: *nobudlab-nobudlab, panalatib-panalatib*;

g) ravish+ravish-la: *ko'ndalanglab-ko'ndalanglab, ravon-ravonlab va h.k.*

**XULOSA.** Umuman, asardagi -la, -lan, -lash affiksli muallif nutqi neologizmlari tuzilishi va ma'no ifodasi, ya'ni struktur-semantikasiga ko'ra turlicha. Mazkur affiksli so'zlar tarkiban sodda, murakkab (qo'shma, juft, takror) ko'rinishlarda bo'lib, ma'no ifodasiga ko'ra shaxs yoki narsaning o'rin, tomonga bo'lgan harakati (*do'konlamoq, tashqarilamoq, dalalamoq, ko'chalamoq, qishloqlamoq*), predmetni asosdan anglashilgan narsa bilan ta'minlash (*tomlamoq, egatlamoq, siqimlamoq*), shaxs

yoki narsani asos bildirgan holatga olish (*tirsaklamoq, changallamoq, boshimlamoq*), asbob-qurol, texnika vositasi bilan ma'lum obyektga bo'ladigan ishni amalga oshirish (*dilnavozlamoq, olqinlamoq, doriqog'ozlamoq*), asosdan anglashilgan harakat-holatda bo'lish (*pokizalamoq, muloyimlamoq, forig'lamoq, alohidalamoq*), asosdan anglashilgan narsa, holat va shu kabilarning yuz berishi, unda shunday narsa, holatning paydo bo'lishi (*shafaqlanmoq, nazarlanmoq, hayronlanmoq, manqalanmoq, hazarlanmoq*), asosdan anglashilgan narsa, ish-harakatni bajarish (*omon-esonlashmoq, xayr-xo'shlashmoq, mashvaratlashmoq*) va h.k. ma'nodagi fe'llar yasaganligiga guvoh bo'lamiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Asadov T. Mardonova S. O'zbek tilida faol so'z yasaliishi va muallif neologizmlari. Monografiya. Globe. 2021.
2. Xojiev A. Xozirgi uzbek tiliida forma yasaliishi. –T.: Uqituvchi, 1979.
3. Xojiev A. Uzbek tili suz yasaliishi tizimi. –T.: Uqituvchi, 2007.
4. Mirzaev I. Lingvistik poetika va uning filologik tahlilidagi urni. Ilmii tuplam. –T.: Universitet, 2002, 20-23-6.
5. Mirzaev I. Lingvopoetik tahlil–ijodii tafakkur sohibini tayirlashning birламчи omili ekranligi haqida. Ilmii tuplam 3-tom. –T.: UZMU nashri, 2006, 81-83-6.
6. Ne'matov X. Suz yasash qolipi, yasalgan va yasama suz xususida// Uzbek tili va adabiyoti, 2007, 1-son, 14-18-6.
7. Qosimova M.B. Badiii nutq individualligining lingvistik xususiyatlari (To'fay Murod asarlari asosida). NDA. – T., 2007.
8. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. –T.: Fan va texnologiyalar, 2010.
9. Yuldashov M. Badiii matnning lingvopoetik tadqiqi. DDA. – T., 2009.
10. Uzbek tili grammatikasi. 1-tom. F. Abdurahmonov taxiri ostida. –T.: Fan, 1975.

  
**Mardon RAHMATOV,**  
*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti*  
*universiteti dotsenti, f.f.n.*

